2. Media matnlarda terminlardan foydalanish bo‘yicha metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish, ularning pragmatik va stilistik funksiyasini hisobga olgan holda, terminlarni to‘g‘ri qo‘llashni ta’minlash.

3. Inglizcha terminlarning o‘zbekcha ekvivalentlarini yaratish jarayonini kuchaytirish, shu orqali tilning terminologik mustaqilligini saqlash va yangi texnologik atamalarni milliy kontekstga moslashtirish.

4. O‘zbekiston OAVlari uchun yagona IT-terminologiya standartini joriy etish, bu esa media matnlarda terminlarning bir xilligi va izchilligini ta’minlaydi.

5. Media matnlarda terminlarning auditoriya tushunishini oshirish maqsadida izohlar, lug‘at qo‘llanmalar yoki interaktiv resurslardan foydalanish.

6. IT-terminlarning lingvopragmatik xususiyatlarini chuqur o‘rganish bo‘yicha doimiy ilmiy tadqiqotlar olib borish, bu orqali terminlar media diskursidagi kommunikativ va stilistik rolini yanada aniqlashtirish.

7. Tilshunoslik va media sohasidagi mutaxassislar uchun seminarlar, treninglar va o‘quv kurslari tashkil etish orqali IT-terminlarning media makonidagi qo‘llanilishini samarali boshqarish.

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, inglizcha IT-terminlarning o‘zbek media makoniga kirib kelishi nafaqat tilning terminologik boyishini oshiradi, balki media matnlarda kommunikativ, stilistik va pragmatik funksiyalarni kuchaytiradi. Shu bilan birga, terminlarning me’yorlashtirilmagan shaklda qo‘llanishi tilning izchilligiga ta’sir qilishi mumkin, shuning uchun ularni ilmiy asosda me’yorlashtirish va auditoriya tushunishini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Otaboyev A. O‘zbek tilining terminologiyasi masalalari. Toshkent, “Fan”, 2017.

(2). Karimov B. Media tilining lingvistik xususiyatlari. Toshkent, 2020.

(3). Hasanov R. Axborot texnologiyalari va til: lingvopragmatik yondashuv. Toshkent, 2021.

(4). Samadova N. O‘zbek tilida yangi leksika va terminologiya. Toshkent, 2019.

(5). Е.Н.Галичкина. Компьютерная коммуникация: лингвистический статус, знаковые средства, жанровое пространство. Дис. ... док. филол. наук, Волгоград, 2012, 322 с.

(6). Ю.А.Белова. Стратегии интерпретации смысла газетных заголовок. Автореф. дис. ... канд. фил. наук, Уфа, 2009, 24 с.

(7). Т.Г.Добросклонская. Теория и методы медиалингвистики. Автореф. дис. ... канд. фил.наук. – Москва, 2000, 50 с.

(8). Musurmonova O. (2020). “Media matnlarida zamonaviy terminlarning leksik-semantik xususiyatlari”. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 4-son, 45–52-betlar.

(9). Abduazizov, A. (2018). Til va jamiyat. Internet tili va tilshunoslik yondashuvlari. Toshkent, “Fan”.

Ro‘zmetova Madinabonu Ruslan qizi (Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya yo‘nalishi 2-kurs talabasi; madinarozmetova2006@gmail.com)

EKOLOGIYAGA OID MATNLARDA ANTROPOLOGIK TERMINLAR DIFFERENSIYALASHISHI

Annotatsiya*. Ushbu maqola ekologik matnlarda eng ko‘p chalkashlik keltirib chiqaradigan antropologik terminlarni misollar bilan solishtirib tahlil qilinadi. Terminlarning aralash-quralash qo‘llanilishi xalqaro taqqoslash va ilmiy aloqaga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ko‘rib chiqilib, terminlarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi ilmiy aniqlikka putur yetkazishi ta’kidlanadi. Bu maqola ekologik matnlarda antropologik terminlarning differensiyalashuvi masalasini, xususan, bir xil ekologik jarayon va hodisalarning turli madaniy-lingvistik kontekstlarda o‘ziga xos semantik qatlamlar orqali ifodalanishi natijasida yuzaga keladigan chalkashlik analiziga bag‘ishlangan. Shu bilan birgalikda, ekologik atamalarni tarjima qilish jarayonida madaniy tafovutlarni hisobga olish muhimligi ham ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *madaniy ekologiya, ekologik antropologiya, semantik farq, antropogen, terminlar differensiyalashuvi, inson ekologiyasi.*

ДИФФЕРЕНЦИАЦИЯ АНТРОПОЛОГИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ТЕКСТАХ

Аннотация. *В трёх статьях анализируются наиболее запутанные антропологические термины в экологических текстах, сравнивая их с примерами. Рассматривается пагубное влияние смешения терминов на международную оценку и научную коммуникацию, и подчёркивается, что неправильное использование терминов подрывает научную точность. Вопрос дифференциации антропологических терминов в экологических текстах связан с путаницей, возникающей в результа-*

те выражения одних и тех же экологических процессов и процессов через определённые семантические слои в разных культурно-языковых контекстах. При этом рассматривается важность учёта культурных различий при переводе экологических терминов.

Ключевые слова: *культурная экология, экологическая антропология, семантическое различие, антропогенный, дифференциация терминов, экология человека.*

DIFFERENTIATION OF ANTHROPOLOGICAL TERMS IN ECOLOGICAL TEXTS

Annotation. *This article analyzes the most confusing anthropological terms in ecological texts, comparing them with examples. It is considered that the mixed use of terms negatively affects international comparison and scientific communication, and it is emphasized that the incorrect use of terms undermines scientific accuracy. The issue of differentiation of anthropological terms in ecological texts is discussed, in particular, the analysis of the confusion that arises as a result of the expression of the same ecological processes and phenomena through specific semantic layers in different cultural-linguistic contexts. At the same time, the importance of taking into account cultural differences in the process of translating ecological terms is considered.*

Key words: *Cultural ecology, ecological anthropology, semantic difference, anthropogenic, term differentiation, human ecology.*

Kirish (Introduction). Ekologik matnlarda, ayniqsa, ekologiya fanining inson bilan bog‘liq bo‘limlarida antropologik terminlar ko‘p uchraydi. Buning sababi zamonaviy ekologiya faqat tabiatni emas, balki inson (antropogen) ta’sirini ham o‘rganishidir. Hozirgi davrda ekologik muammolar faqatgina tabiiy jarayonlarning emas, balki inson faoliyatining ham bevosita natijasi sifatida qabul qilinyapti. Shuning uchun ekologik matnlar tahlilida antropologik omil, ya’ni, insonning ekologik tizimdagi o‘rni, roli va ta’siri ham ahamiyatli hisoblanadi. Antropologik termin – inson va uning ijtimoiy, madaniy, ekologik xatti-harakatlarini ifodalovchi atama. Ularning ekologik matnlarda differensiyalash jarayoni, ya’ni, mazmunan ajratilishi va kontekstual farqlanishi ilmiy tahlil uchun dolzarb mavzu sifatida ko‘riladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review) va tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ekologiya bilan antropologiya o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ushbu terminlarning ko‘p qatlamli tabiatini belgilaydi va ularni tahlil qilishda kontekstual yondashuvning ahamiyatini oshiradi. Tarjima jarayonida ekologik va antropologik tushunchalar kesishadigan semantik zonalarni aniqlash, matnning ilmiy aniqligini ta’minlashda asosiy vositaga aylanadi. Shuningdek, antropologik terminlarning ayrimlari milliy-madaniy xususiyatlarni ifodalagani sababli, ularning ekvivalentini topish emas, balki mazmuniy moslikni yaratish tarjimonning asosiy vazifalaridan biridir. Ekologik matnlar, ko‘pincha, fanlararo xarakterga ega bo‘lgani uchun terminlarning funksional yuklamasi matnning umumiy ilmiy uslubiga bog‘liq holda o‘zgarib boradi. Bunday matnlarda antropologik terminlarning noto‘g‘ri talqin qilinishi ekologik jarayonlar haqidagi tasavvurlarni buzishi mumkin. Shu sababli tarjimaning ilmiy asoslanganligi nafaqat til masalasi, balki ekologik bilimlarning to‘g‘ri shakllanishi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Natijada ekologik matnlardagi antropologik terminlar tarjimasini chuqur o‘rganish, ilmiy konseptlarning boshqa tillarda adekvat aks etishini ta’minlaydigan muhim nazariy-amaliy yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi. “Antropogen”, “ekologik antropologiya”, “madaniy ekologiya”, “antropogen landshaft”, “ekologik iz”, “noosfera” kabi antropologik terminlar ekologik matnlarning bugungi kunda ajralmas qismiga aylangan. Ammo aynan shu terminlarning boshqa tillarga qilingan tarjimalari juda ko‘p chalkashliklarga sabab bo‘lmoqda. Masalan, bir xil tushuncha ingliz tilida “human ecology” deb atalsa, o‘zbek tilida “inson ekologiyasi”, “antropoekologiya” yoki, hatto “ekologik antropologiya” shaklida turlicha tarjima qilinib, natijada mualliflar bir hodisani turlicha terminlar bilan ifodalab, ilmiy matndagi aniqlikka putur yetkazmoqda. “Inson kapitali” iborasi iqtisodiyotda odamning bilim, malaka va sog‘lig‘ini “kapital” sifatida baholasa, ekologik matnlarda bu termin butunlay boshqa ma’noga ega bo‘ladi. Bu yerda “ekologik inson kapitali” (ecological human capital) deb ataluvchi tushuncha ekologik mas’uliyatli xulq-atvorni shakllantirish, tabiatni asrash bo‘yicha ko‘nikmalarni oshirish hamda atrof-muhit muammolarni anglab yetish ham termin ma’nosi jihatdan o‘z ichiga oladi. Isbot tarzida, Finlyandiya yoki Shvetsiyada o‘tkazilgan tadqiqotlarda “yuqori ekologik inson kapitali”ga ega bo‘lgan jamiyatlar chiqindini 70–80%gacha qayta ishlay olishi va uglerod izini keskin kamaytirishi isbotlangan [2].

Geografiya va madaniyatshunoslikda “madaniy landshaft” atamasi inson tomonidan yaratilgan va madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan landshaftlarni (Toshkent yaqinidagi Chimgan bog‘lari yoki Italiyaning Toskana vodiysi) bildiradi. Ekologik matnlarda esa “madaniy landshaft”, asosan, “antropogen landshaft”-ning bir turi sifatida talqin qilinadi va uning ekologik barqarorligi aniqlanadi. Masalan, O‘zbekistondagi an’anaviy qadimiy sugo‘rish tizimlari (ariq, qadimiy hovuzlar) madaniy landshaft hisoblanib, ayni paytda

biologik xilma-xillikni saqlab qoluvchi muhim ekologik funktsiyaga ega deb qaraladi. Agar bu tizimlar buzilsa, madaniy landshaft yo‘qolishi bilan birga ekologik xizmatlar (suvni tozalash, mikroiqlimni barqarorlashtirish) ham yo‘qoladi. “Ekologik xulq” termini ham xuddi shunday ikki xil ma’noda qo‘llaniladi:

1. Psixologiya sohasi bo‘yicha, shaxsning chiqindi chiqarishi va energiya tejashi bilan bog‘liq harakatlar mazmuni bildiradi.

2. Ekologik matnlarda “ekologik ong darajasi”, “ekologik madaniyat”, ya’ni jamiyatning umumiy xatti-harakatlarini ifodalaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Yevropa Ittifoqining 2023-yilgi hisobotida Germaniya 78% aholisi “yuqori ekologik xulq”ga ega deb baholangan, chunki ularning har kuni qiladigan tanlovi (velosipedda yurish, organik mahsulot sotib olish) umumiy uglerod izini 30%ga kamaytirgan [6].

Madaniy ekologiya biologik ekologiyadan farqli o‘laroq, moslashuvni faqat energiya oqimi emas, balki ma’no tizimlari, ramzlar, hokimiyat munosabatlari va tarixiy jarayonlar orqali tahlil qiladi [3]. Shu sababdan bir xil ekologik muammo turli madaniyatlarda butunlay boshqacha tarzda yechiladi. Suv tanqisligini misol tarzda olsak, 1-biologik nuqtayi nazardan, suv resurslari kamaygani, aholi soni ko‘paygani bilan izohlanadi va yechim sifatida to‘g‘on, nasos yoki desalinizatsiya kerak deb baholanadi; 2-madaniy ekologiya jihatdan har hududda turlicha yechiladi. Masalan, Marokashning Atlas tog‘larida suv taqsimoti “kuttab” (an’anaviy suv hakami) tomonidan amalga oshiriladi: u suvni oilaning erkak a’zolari soniga emas, balki dalaning balandligi, tuproq turi va oilaning tarixiy huquqiga qarab taqsimlaydi. Bu yerda suv – oilaviy sharaf masalasi sifatida ham ko‘riladi.

Ekologik antropologiya biologik ekologiyadan farqli o‘laroq, insonning muhitga moslashuvini faqat biologik emas, balki lingvistik, madaniy, ramziy va idrok darajasi bilan birgalikda o‘rganadi. Shu sababli bir xil tabiiy sharoit turli jamiyatlarda butunlay boshqacha madaniy shakllar va institutlarga ega bo‘ladi [5]. Bir xil muammo: qurg‘oqchil cho‘l, suv juda kam. Biologik ekolog: “Suv resursi 200 mm, faqat cho‘l o‘simliklari o‘sadi”. Ekologik antropologiya farqlari: Avstraliya aborigenlari suvni “orzu chizig‘ilari” (songlines) bo‘yicha topadi – suv joylari qo‘shiq va afsonalarda kodlangan [3]. Saudiya Arabistonidagi badaviy qabilalar suvni faqat “qabila sharafi”ga ko‘ra taqsimlaydi. Namibiyadagi himba xalqi suvni sigirlarning oyoq izidan topadi – hayvonlar suvni biladi deya ishonishadi [4].

Tarjima jarayonida antropologik tushunchalarning milliy-madaniy konnotatsiyalari to‘liq aks etishi, ayniqsa, ekologik matnlarning mazmuniy aniqligi uchun zarur hisoblanadi. Bir xil ekologik hodisalar turli madaniy kontekstlarda turlicha talqin qilinishi tarjimada semantik noaniqliklar keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababdan tarjimon antropologik terminlarning lingvokulturologik qatlamini ham hisobga olishi, ularning manba va maqsad tilidagi funksional ekvivalentlarini aniqlashi talab etiladi. Ekologik antropologiya bilan bog‘liq atamalarda, ko‘pincha, insonning ijtimoiy tajribasi, qadriyatlari va ekologik xulq-atvori mujassam bo‘lgani bois, ularni tarjima qilishda faqat leksik darajadagi moslik bilan cheklanib bo‘lmaydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ekologik matnlarda antropologik terminlar differensiyalashuvi murakkab, lekin zarur jarayon. Bu jarayon yordamida terminlar semantik doirasini kengaytirib, konseptual asoslar yaratadi hamda insoniyatning atrof-muhitga nisbatan mas’uliyat va ong darajasini aniqroq aks ettirish imkonini beradi. Ekologik matnlarda antropologik terminlarni tushunish, ularni ma’no jihatdan ajratish va tarjima qilish tilshunoslik va ekologiya fani o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Shuningdek, ushbu terminlar ilmiy adabiyotlarda konseptual tahlil, leksik va semantik tahlil uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Tarjima jarayonida antropologik va ekologik ma’nolarni saqlash matnning ilmiy aniqligi va mukammalligini ta’minlaydi. Shu yo‘l bilan ekologik matnlarda antropologik terminlar tarjimasi nafaqat lingvistik, balki ekomadaniy va sotsiologik nuqtayi nazardan ham ahamiyat kasb etadi. Antropologik terminlarning ekologik diskursda to‘g‘ri va izchil ishlatilishi nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, ekologiya va ijtimoiy fan sohalari kesishmasida yangi paradigmatik, tadqiqot yo‘nalishlarini ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Haenn N., & Wilk R. (Eds.). Environment in Anthropology: A Reader in Ecology, Culture, and Sustainable Living (2nd ed.). New York University Press (2016).

(2). Koskela E., & Pettey I. Ecological human capital and sustainable development: A Nordic perspective. (2022).

(3). Scientific American: Ancient Indigenous “Songlines” Match Long-Sunken Landscape off Australia (2024). Website: scientificamerican.com.

(4). Tribal Quest: Namibia – The Himba. (2023). Havola: tribalquest.org.

(5). Understanding Human Ecology: Anthropology and Human Ecology (muallif: IGNOU, 2023).